

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.Sh.Shermuhammadov Ilmsizlarni tarix haqiqatlari fosh etadi.....	8
PEDAGOGIKA	
B.Sh.Shermuhammadov, O.R.Raxmatov Mediasavodxonlik vositasida bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining informatsion madaniyatini rivojlantirish mazmuni.....	10
Ким Владимир Эффективность внедрения акцентированной методики по развитию физического статуса юных баскетболистов	15
А.Н.Амонов Научное обоснование актуальности проблемы развития скорости перемещения и точности ударов в настольном теннисе с самого раннего возраста.....	20
N.O.Saidova, D.M.Axmadjonova Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tayyorlov guruhlarida bolalarning matematik tasavvurlarini rivojlantirishning hozirgi holati.....	25
O.Q.Xasanova Bo'lajak nemis tili o'qituvchilarida xatolarni tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirishning ahamiyati	28
M.E.Abdullayev O'quvchilarda milliy g'urur tuyg'usini rivojlantirishda etnopedagogik qadriyatlarining tarbiyaviy imkoniyatlari	34
B.Sh.Turg'unboyev Bo'lajak o'qituvchilarning media kompetentsiyasini shakllantirishga nazariy va uslubiy yondashuvlar	37
X.A.Kadirova Tibbiyot oliygohlarida tibbiy biologiya va umumiy genetika fanlarini o'qitishda foydalaniladigan interfaol ta'lim metodlari.....	43
S.T.Xakimov, S.Q.Xudoyqulov Maktab o'quvchilarining kun davomidagi harakat faolligining me'yori	49
D.K.Karimov Jismoniy madaniyat yo'nalishi talabalarida egiluvchanlikni rivojlantirish usullari samaraliligini o'rganish.....	53
K.F.Nazarova Boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutqiy kompetensiyani rivojlantirish jarayonini loyihalashning pedagogik-psixologiya xususiyatlari.....	57
J.Dj.Sultanov Harbiy-siyosiy sohada axborot tahdidlarining oldini olish masalalari.....	61
X.X.Xasanbayev Mudofaa tizimida harbiy pedagog kadrlarni tayyorlash va ularni malakasini oshirish mexanizmi.....	64
O'.R.Maxmudov O'zbekiston harbiy ta'lim muassasalari harbiy pedagoglarining professional harbiy pedagog bo'lib shakllanishidagi muammolar va ularning yechimi.....	68
I.Y.Masharipov Bo'lajak harbiy pedagoglarni harbiy-kasbiy kompetentligini shakllantirishning pedagogik omili.....	71
F.O.Qo'ysinova Mafkuraviy va ma'naviy tahdidlar bilan bog'liq jarayonlarda radikalizm muammosi	75
R.X.Ibragimov Kasb-hunar maktablarida fizika fanini o'rganishda o'quvchilar o'rtasida eksperimental ko'nikmalarni shakllantirish	78
A.Tuychiyev Ta'lim tizimida xorijiy tajribadan foydalanish va ta'lim texnologiyalarining o'ziga xos jihatlari.....	82

MEDIASAVODXONLIK VOSITASIDA BO‘LAJAK TEXNOLOGIK TA‘LIM O‘QITUVCHILARINING INFORMATSION MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH MAZMUNI**СОДЕРЖАНИЕ РАЗВИТИЯ ИНФОРМАЦИОННОЙ КУЛЬТУРЫ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ СРЕДСТВАМИ МЕДИАГРАМОТНОСТИ****THE CONTENT OF THE DEVELOPMENT OF INFORMATION CULTURE OF FUTURE TEACHERS OF TECHNOLOGICAL EDUCATION THROUGH MEDIA LITERACY****Shermuhhammadov Bahodirjon Shermuhhammadovich¹**¹Farg‘ona davlat universiteti rektori, pedagogika fanlari doktori, professor**Raxmatov Odiljon Raxmonberdiyevich²**²Farg‘ona davlat universiteti, axborot texnologiyalari kafedrası o‘qituvchisi**Annotatsiya**

Ushbu maqola media ta'limning globallashuvi hamda mediasavodxonlikning insonlar orasida, ayniqsa, yoshlar orasida keng ommalashishi yuzasidan muhim ma'lumotlar beradi. Media bu – axborotlar bilan ishlashni shakllantiruvchi qism hisoblanadi. Ommaviy kommunikatsiya va axborot tizimi bilim olishning eng samarali tizimidir. Hozirgi kunda ma'lumotlarni qabul qilish, tarqatish va kerakli joylarga yetkazish uchun eng qulay ham media hisoblanadi. Ommaviy axborot vositalaridan televedeniya, internet, radio va matbuot eng asosiylari hisoblanadi. Media bugungi kunda ta'limning samaradorligini oshirganligi uchun ham inson hayotining ajralmas qismi hisoblanib kelmoqda. Bundan tashqari masofaviy ta'lim hamda onlayn darslarda ham medianing roli juda ham katta hisoblanadi.

Аннотация

Данная статья посвящена глобализации медиаобразования и широкому распространению медиаграмотности среди людей, особенно среди молодежи. Медиа – это формирующая часть работы с информацией. Система массовых коммуникаций и информации является наиболее эффективной системой получения знаний. В настоящее время средства массовой информации считаются наиболее удобными для получения, распространения и доставки информации в нужные места. Среди средств массовой информации наибольшее значение имеют телевидение, Интернет, радио и пресса. Сегодня средства массовой информации считаются неотъемлемой частью жизни человека, поскольку они повышают эффективность образования. Кроме того, роль СМИ в дистанционном образовании и онлайн-занятиях очень велика.

Abstract

This article is about the globalization of media education and the wide spread of media literacy among people, especially among young people. Media is a formative part of working with information. Mass communication and information system is the most effective system of acquiring knowledge. Currently, the media is considered the most convenient for receiving, distributing and delivering information to the right places. Among mass media, television, internet, radio and press are the most important. Today, media is considered an integral part of human life because it increases the effectiveness of education. In addition, the role of media in distance education and online classes is very large.

Kalit so‘zlar: media, ommaviy axborot vositalari, internet, matbuot, televedeniya, globallashuv, dastur, masofaviy ta'lim, onlayn dars.

Ключевые слова: СМИ, СМИ, интернет, пресса, телевидение, глобализация, программа, дистанционное образование, онлайн-класс.

Key words: media, media, internet, press, television, globalization, program, distance education, online class.

KIRISH

Globallashuv sharoitida media ta'sirning ko'lamı va tezligi oshib, ommaviy axborot vositalari, Internet va undagi ijtimoiy saytlar, kino sanoati orqali katta miqdor va miqyosda axborotlar uzatilmoqda. Zamonaviy dunyoni ommaviy axborot vositalari - mediasiz tasavvur etish qiyin.

Media - bosma nashr, matbuot, televideniye, kino, radio, ovoz yozish va internet tizimini o'z ichiga oladi. Shu bois jamiyatda mediata'limni rivojlantirish, bu orqali insonlarda mediasavodxonlikni shakllantirish, medianing axboriy ta'siriga tushib qolmaslikka o'rgatish, o'qitish muhim va ustuvor vazifalardan biridir. Buning uchun ta'lim tizimida axborot xavfsizligini ta'minlashga doir ta'limiy-tashkiliy ishlarni qayta ko'rib chiqish, yangicha kurash mexanizmlarini yaratish, o'quvchilarda va talaba-yoshlarda mediamadaniyatni shakllantirishga yangicha yondashuvni olib kirish talab etiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tadqiqotchilar Manuel Peres Tornero va Tapio Varisning fikriga ko'ra, "kommunikatsion qadriyatlar global miqyosdagi media savodxonlikka integratsiya qilinishi lozim. Kommunikatsiya uchun xos bo'lgan yangi muvozanatni, global mas'uliyatning yangi axloqini va bugungi kunga qadar mavjud bo'lgan qadriyatlarni chuqurroq anglash zarurati yuzaga kelgan". Ular global media va axborot savodxonligi uchun quyidagi tamoyil "Mediata'lim" so'zi Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi davlatlari hududiga o'tgan asrning 80-yillarida kirib keldi. Inglizcha "media education" so'zini shunchaki so'zma-so'z tarjima qilish yaramaydi. U matndagi o'rniga ko'ra turli ma'nalarda qo'llanilishi mumkin. Shunga qaramay, medata'limning tayanch tushunchasini aniqlab olishimiz kerak. A.A.Jurin ularni uch turga bo'lgan[1,32].

1. Ommaviy axborot vositalarining jamiyat a'zolariga ta'sirini o'rganuvchi va nazariy masalalarini ishlab chiquvchi, ta'lim oluvchilarni OAV dunyosi bilan uchrashuvga tayyorlovchi pedagogik fan.

2. Yoshlarni ommaviy axborot vositalaridan foydalanish, medianing dunyodagi rolini tushunishga tayyorlovchi professor-o'qituvchi va talabaning birgalikdagi amaliy faoliyati.

3. Ta'limning ommaviy axborot vositalarining madaniyat va dunyoni tushunishdagi roli haqida bilim beruvchi va media axborotlari bilan samarali ishlash ko'nikmasini shakllantiruvchi qismi hisoblanadi.

"Ommaviy kommunikatsiya va axborot kanallari insonning hayoti davomida bilim olishga katta ta'sir ko'rsatadi, shuning uchun ham nafaqat bo'lajak jurnalistlar, balki barcha fuqarolar ham media va boshqa axborot xizmatlari bilan qay tarzda ishlashi va ularni qay tarzda to'g'ri baholash lozimligini bilishi zarur. Media va axborot savodxonligining vazifasi esa aynan ushbu bilimlarni foydalanuvchilarga yetkazib berishdan iboratdir". Shubhasiz, mediata'lim OAV va kommunikatsiyaning pedagogik aspektidagi bir qismi sanaladi. Uning nazariy asoslarini pedagogika va media haqidagi fanlar majmuasi tashkil etadi. Amaliy jihatdan esa uning asosida pedagog va talaba faoliyati natijasida medialashgan dunyoga insonni tayyorlash yotadi.

Mediata'lim nafaqat pedagogika va badiiy tarbiya bilan, balki bir nechta gumanitar bilim sohalari, masalan, san'atshunoslik (kinoshunoslik, teatrshunoslik), adabiyotshunoslik, madaniyatshunoslik, tarix (dunyo madaniyat va san'ati tarixi), psixologiya (san'at, badiiy tarbiya, ijodkorlik psixologiyasi) bilan chambarchas bog'langan.

Hozirgi vaqtda global kompyuterlashtirish inson faoliyatining barcha sohalarini, shu jumladan ilm-fan va ta'limni qamrab olgan. Internetning rivojlanishi va o'quv jarayonini soddalashtiradigan ko'plab kompyuter dasturlarining paydo bo'lishi chet tillarini o'rganishni sezilarli darajada o'zgartirib, haqiqiy manbalar bilan ishlashni tezroq va osonlashtirdi.

Ko'pgina sotsiologik tadqiqotlar OAV, ayniqsa, televideniyaning jamiyat va alohida shaxslar hayotidagi o'rni ortib borayotganini ko'rsatmoqda. Uning bola hayotidagi ahamiyati katta yoshdagi insonning hayotidagiga nisbatan ko'proqdir. Televideniye zamonaviy inson uchun yashayotgan olami to'g'risidagi axborotning muhim manbaiga aylandi.

Ommaviy axborot vositalarining ahamiyati bo'yicha televideniye birinchi, Internet ikkinchi, radio va matbuot nashrlari uchinchi o'rinni egallaydi. Hozirgi kunda ommaviy axborot vositalari, xususan, televideniye, jamoatchilik ongi hamda shaxsning shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Zamonaviy sharoitda bola hayotining dastlabki oylaridanoq axborotga to'yingan muhitga tushib qoladi: ish bilan mashg'ul ota-onalar kechqurun alla va ertaklar o'rniga video yoki televizorni yoqib qo'yadilar. Bola doimiy ravishda yangiliklar, musiqa yoki kinoqahramonlarining tovushlari yangrab turgan olamda ulg'ayadi. Televideniye ommaviy kommunikatsiyaning asosiy vositalaridan biri sifatida madaniyatni, deyarli, nazorat qiladi.

Umuman olganda mediata'limning shakllanishi, rivojlangan davlatlarda ta'lim tizimiga kiritilishi, ommalashib borishi va pedagogikaning bir yo'nalishiga aylanishi evolyutsiyasini tadqiq etish ham muhim ahamiyatga ega. Bu orqali mamlakatimizda mediamadaniyatni rivojlantirishda mediata'limning o'rni va xorij tajribasini amaliyotga joriy qilish mexanizmlarini bilib olish mumkin bo'ladi.

AQShda o'tgan asrning 20-yillarida mediata'limning ba'zi yo'nalishlari qaysidir darajada bor edi. Bir necha universitetlarda ixtisoslashgan fakultetlar tashkil etildi. AQShda mediata'lim bo'yicha bir necha katta assotsiatsiyalar bor. Vashington, Nyu-Meksikodagi Mediata'lim markazi (Center for Media Education), Los-Anjelesdagi Mediasavodxonlik markazi (Center for Media Literacy), Shimoliy

Karolinadagi “Mediasavodxonlik ortidagi fuqaro” harakati, Nyu-Yorkdagi Ta’lim videomarkazi (Educational Video Center), San-Fransiskodagi “Mediasavodxonlik bo’yicha strategiya” (Strategies for Media Literacy) assotsiatsiyasi va Milliy alyans mediasan’ati va madaniyati (National Alliance for Media Arts and Culture) va boshqalar. Mediata’limni AQShda “Mediasavodxonlik”, “Axboriy savodxonlik”, “Vizual savodxonlik” deb ham nomlashadi. Har bir terminning qo’llanilish o’rni ham mavjud. Masalan, “axboriy savodxonlik” ko’proq kutubxona, kompyuter va medianing raqamli turlari bilan bog’liq holda qo’llaniladi. “Mediasavodxonlik” esa ko’proq televideniye, ijtimoiy faollik va ommaviy madaniyat bilan bog’liq holda ishlatiladi.

Mediasavodxonlikni rivojlantirishning pedagogik zaruratini quyidagi omillar bilan asoslash mumkin:

Birinchidan, mediata’lim bugungi kunda ta’lim smaradaorligini ta’minlashning eng qulay vositasiga aylanib qoldi. Shu bois ham ta’lim sifatini ta’minlashda media imkoniyatlaridan oqilona foydalanish vazifalari kun tartibida bo’lib qolmoqda. Ammo mediata’limning samaradorligi mediamadaniyatni shakllanishi asosida bo’lishi uning pedagogik zaruriyatini yanada oshirmoqda.

Ikkinchidan, mediata’lim inson hayotining ajralmas bir qismiga aylanmoqda. Televideniya, internet va boshqa vositalar asosida tunu-kun axborot olish imkoniyatini yuzaga keldi. Shu bilan birga axborot tarqatish saviyasi, zararli axborotlarni salmog’i ortib borishi bilan axborot iste’mol qiluvchilarda mediamadaniyatni shakllantirish vazifalarini ortirib yubordi.

Uchinchidan, bugungi kunda masofaviy ta’lim, onlayn darslar va axborot texnologiyalari asosidagi transformatsion mashg’ulotlarning ommalashishi media savodxonlikni, mediamadaniyatni rivojlantirishni talab qilmoqda. Shu bois pedagogik jarayonda mediamadaniyatni rivojlantirish tizimini takomillshatirish zaruratini ortirib yubormoqda.

O’quv jarayoni tashkilotchilari oldida nokasbiy mediata’limning fanlar zamonaviy tasnifidagi o’rni ham jumboq bo’lib turibdi. Masalan, mediata’limni oliy ta’lim o’quv rejasining qaysi blogiga qo’shish kerak? Uni ko’pchilik umumiy gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlarga, bir nechta jurnalistika yoki jamoatchilik bilan aloqalarga qo’shish kerak, degan fikrni bildirishadi. Shu bilan birga, uni tabiiy fanlarga, informatika va zamonaviy kompyuter texnologiyalari fanlari blogiga qo’shib bo’lmaydi. Fikrimizcha, mediata’lim prinsiplaridan kelib chiqqan holda, uni ijtimoiy fanlar sirasiga kiritish to’g’ri bo’ladi.

Yoshlar bilan ishlash bo’yicha mutaxassislar pedagog sifatida ularning mediaolami va mediamadaniyatini yaxshi biladi. Yoshlar mediamadaniyati kattalarnikidan sezilarli tarzda farqlanishi mumkin. Shu sababdan yoshlar va kattalar o’rtasidagi tushunmovchilikni bartaraf etish hamda yuqori sifatli mediata’limni ta’minlash maqsadida medialar mohiyati hamda yoshlar mediamadaniyati xususida aniq tasavvurlarga ega bo’lish darkor. Bunday bilim ayniqsa medialar bilan bog’lik va yoshlarga mo’ljallangan tadbirlarni tashkil etish jarayonida juda zarur.

NATIJA VA MUHOKAMA

Bo’lajak texnologik ta’lim o’qituvchilarida mediasavodxonlik turli fanlar hamkorligida amalga oshiriladi. “Media savodxonlikning xavfsizlik, ijtimoiy-axloqiy, madaniy va texnologik jihatlari bilan bog’liq ko’nikmalarni o’rganish hususida fikr yuritish mumkin. Media savodxonlik shakllanishi davomida talaba mediadan samarali va xavfsiz foydalanishi, shuningdek, ijtimoiy hayotning muayyan bir manzilidagi ahvolni adekvat, kasbiy tarzda baholashi, mustaqil fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishi, buning barobarida fuqarolik jamiyatini barpo etishga ko’maklashish ko’nikmalariga ega bo’ladi”. Bo’lajak texnologik ta’lim o’qituvchilarida mediasavodxonlikning asosiy jihati sifatida mediamuhitga tahliliy yondashuv, ya’ni uni tanqidiy qabul qilish va media vositasida o’zini ifoda etish” sifatida baholash mumkin.

Bo’lajak texnologik ta’lim o’qituvchilarida mediasavodxonlikni rivojlantirishda fanlararo hamkorlik imkoniyatlaridan foydalanish dolzarb vazifalardan biri bo’lib qolmoqda. Chunki fanlararo hamkorlik va integratsion ta’lim talabalarda kompleks qobiliyatlarni rivojlantiruvchi jihat sifatida tarflanmoqda. Mediamadaniyat ham ham turli fanlarning integratsiyasi asosida rivojlantirilishi, shu bilan birga mediata’limda axborot texnologiyalari va til o’qitish fanlarining integratsiyasi ta’minlanishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy dunyoda axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarining global maydoni birinchi darajali bo’lib qolmoqda. Bunday maydonga individual va jamoaviy, obyektiv va subyektiv, moddiy va g’oyaviy tushunchalar birgalikda yuradi va ular global miqyosda ifodalangan yagona yangi bir turni hosil qiladi. Shundan kelib chiqqan holda yagona media maydonida turib qanday

PEDAGOGIKA

qilib ichki va tashqi «o'ziniki» va «o'zganiki» tushunchalarini farqlay olishni o'rganish vazifasi paydo bo'ladi.

Mediasavodxonlikning bir qancha vazifalari namoyon bo'ladi:

- voqelikni o'zgartirishga yo'naltirilgan virtual dunyoni yaratish;
- talabalarning ongi va xulqini hiyla-nayranglarga tushib qolishdan asrash;
- tashqi qo'llar asosida axborot tahqiqdini yuzaga keltiruvchilarni maqsadlari, qadriyatlar va turmush tarzini o'zgartirish;
- axborotlarni buzib ko'rsatuvchilarda mediasavodxonlikni shakllantirish.

Mediasavodxonlik bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining axborotga bo'lgan ehtiyojiga, haqiqat va yolg'onni, foydali va foydasiz ma'lumotlarni bir biridan ajrata bilish layoqatligiga (yoki layoqatsizligiga) bog'liq ravishda namoyon bo'ladi. Shunday qilib, talabalarning ongi va borliqning o'zaro ta'siri axborot maydonida yana dolzarb masalaga aylanadi. Bu narsa ayniqsa bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilari o'zida bilim, texnologiya va dasturlarni ifoda etgan axborot oqimlarining umumiy maydonida qolib ketishganida yaqqol namoyon bo'ladi.

Bo'lg'usi pedagog uchun mediata'lim va u asosida shaklanadigan mediamadaniyat mavjud ma'lumotlarni sintez qilish asosida axborot ta'sirining istalgan obyekt uchun xavfning yuzaga kelishi mexanizmlarini ochib berish zarur. Faqatgina shu yo'l bilan zamonaviy jamiyatda axborot xavfsizligini ta'minlash usullarini aniqlab olish, turli xildagi destruktiv axborot ta'sirlaridan himoya qilishning o'ziga xos jihatlarni ochib berish mumkin bo'ladi.

Shunday ekan, mediasavodxonlikni rivojlantirishda mediata'limning o'rni va ahamiyati ortib bormoqda. Bunga sabab sifatida global media maydonining salbiy va zararli ta'sirini ortib borayotganligi bilan bog'lash mumkin. Shu bois mamalakatimizda ham media ta'limni rivojlantirish orqali yoshlarda mediamadaniyatni shakllantirish va bu orqali axborot tajovuzlar, zararli g'oyalar va manipulatsion ta'sirga ega bo'lgan mediamahslotlar tahdidiga uchrab qolmaslik mumkin bo'ladi.

Axborot va kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan innovatsion ta'lim texnologiyalari va didaktik modellarni ommaviy va samarali qo'llash orqali ta'lim tizimini raqamli avlodga moslashtirish zarur. Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari – ta'lim tizimidagi barcha muammolarga yechim emas, balki raqamli avlod uchun ma'ruzalar va seminarlarni ma'lumotlarga boy va interaktiv qilib amalga oshirish vositasidir. Shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, o'qituvchilar talabalarning ehtiyojlariga yo'naltirilgan interfaol o'quv jarayonida asosiy rol ni saqlab qoladi.

XULOSA

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ta'lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta'minlash, bu borada pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirib borish uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish, quyidagi mavzular bo'yicha o'qituvchilarning malakasini oshirish uchun kurslarni tashkil qilish va o'tkazish:

- interfaol taqdimot tizimlaridan foydalanish;
- ma'ruza va seminar darslari uchun internet bilan bog'liq holda interfaol va multimediali taqdimotlarni ishlab chiqish;
- real vaqt rejimida quyidagilardan foydalanib masofaviy o'qitish jarayonini amalga oshirish:
- interfaol taqdimot tizimlari;
- video-konferensiya tizimlari;
- virtual zallar;
- elektron resurslardan foydalangan holda istalgan vaqtda
- masofaviy o'qitish jarayonini amalga oshirish:
- matnli / grafik formatda;
- video formatda;
- bulutli texnologiyalardan foydalanish;
- virtual voqelikdan foydalanish;
- kengaytirilgan voqelikdan foydalanish;
- didaktik materiallar va tajriba dizaynlarini ishlab chiqishda 3D
- printerini qo'llash;
- raqamli didaktika va raqamli ta'lim modellarini qo'llash;
- o'qituvchilar va talabalar uchun loyihalar, diplom ishlari, ilmiy izlanishlar va boshqalarini muhokama qilish uchun ilmiy veb-sayt ishlab chiqish.

Ta'lim tizimi bugungi kunda raqamli texnologiyalarga singib ketayotgani shunchaki hayratlanarli yemas, chunki, bugungi kunda axborot makonida taklif etilayotgan ko'plab narsalarni jiddiy tahlil qilish va pedagogik asoslash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Маматова Я, Сулайманова С. Ўзбекистон медиатаълим тараққиёти йўлида. Ўқув қўлланма.–Тошкент.: «Extremum-press», 2015. –Б.32.
2. Ўзбекистон Республикасининг “Ахборотлаштириш тўғрисида”ги Қонуни // Ахборот ва ахборотлаштиришга оид норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар тўплами. – Т.: Адолат, 2008. –Б. 290.
3. “Ўзбекистон Республикаси ахборот ресурсларини тайёрлаш ва уларни маълумотларни узатиш тармоқларида, шу жумладан, Интернетда тарқатиш тартиби тўғрисида”ги Низом. // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. 2004 й., 19-сон, 220-модда.
4. Ўзбекистон Республикасининг “Ахборот олиш кафолатлари ва эркинлиги тўғрисида”ги Қонуни. // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1997 й., 4-5-сон, 108-модда; 2001 й., 1-2-сон, 23-модда; 2015 й., 52-сон, 645-модда.
5. Анисимов В.В. Общие основы педагогики. – Москва.: Просвещение, 2006. –С. 574.
6. Арипов М. Internet ва электрон почта асослари. – Тошкент.: Университет, 2000. –Б. 132.
7. Арипджанова А. Таълимни ахборотлаштириш шароитида олий таълим муассасалари педагогларининг креатив салоҳиятини ривожлантириш: Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD). дисс. Автореф. – Тошкент., 2017. –Б. 50.
8. Атаманов Г.А. Информационная безопасность: сущность и содержание // Бизнес и безопасность в России. – 2007. – № 47. – С. 106.
9. Атамуратов С. Национальная культура и национальное самосознание в процессе обновления общества (Социально-философский аспект): Автореф... док. филос.наук. – Тошкент., 1992. –С. 54.
10. Ахраров Б.С. «Ахборот хавфсизлиги» курсини ўқитишда талабалар мотивациясини ривожлантириш // Замонавий таълим. 2018. №3. –Б. 29-33.
11. Бадалов.М. Ёшлар онгида ҳаётбахш ғоялар // Нуқуқ ва бurchjurnali. – Т., 2014. - №6. // www.huquqburch.uz.
12. Мусурмонова О. Юқори синф ўқувчилари маънавий маданиятини шакллантиришнинг педагогик асослари: Педагогика фанлари доктори. ...дисс. – Тошкент., 1993. –Б. 364.
13. Мухаммадиев Ж.Ў. Ахборот хавфсизлиги: муаммо ва ечимлар. – Тошкент., 2011. – Б.167.
14. Мухаммад Амин Яҳё. Интернетдаги таҳдидлардан ҳимоя. –Тошкент: Movaraunnahr, 2016. –Б. .
15. Мўминов А. Ўзбекистон ахборотлашган жамият сари –Тошкент: «Турон замин зиё», 2013. –Б.104.
16. Назаров Н. Жамиятда миллий-этник жараёнлар ривожининг сиёсий-фаалсафий таҳлили: Сиёс. фан. док. ... дисс. – Тошкен: ДЖҚА, 2005 –С.355.
17. Назаров Қ. Аксиология. Қадриятлар фалсафаси. – Тошкент.: Маънавият, 1998. –Б.176.
18. Найн А.Я. Педагогический эксперимент: методика и его организация. – Магнитогорск: МаГУ, 2002. – С.127.
19. Носов Н.А. Виртуальная психология. – Москва.: АГРАФ, 2000. –С.432.
20. Нурмеева Н.Р. Формирование информационной культуры учащихся на интегрированном уроке: Диссертация на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – Казань, 2004. –С. 192.
21. Нурбой А. Маърифат нимадир? Жаҳолат надир? // «Тафаккур», 2005, 3-сон. –Б.4.
22. Парсонс Т.О структуре социального действия. – 2-е изд. – Москва.: Академический проект, 2000. –С. 289.
23. Педагогика / В.А. Слостенин [и др.]. – Москва.: Школа-Пресс, 1997. – С.512.